

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

METHODS FOR DEVELOPING THE CREATIVE ABILITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Aynura Adilbaevna Azatbaeva

Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti, assistant oqıtıwshı

aynuradilbaevna@gamil.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari va amaliy usullari haqida so'z yuritiladi. "Tasviriy san'at" (2-sinf) darsligi misolida o'quvchilarning kuzatish, tasavvur qilish, muqobil yechim izlash va ijodiy asar yaratish bosqichlari tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ijodiy qobiliyat, tasavvur, "Aqliy hujum", "Klaster", ijodiy asar, mexanizm.

Аннотация: В статье рассматриваются научно-методические основы и практические методы развития творческих способностей учащихся начальных классов. На примере учебника «Изобразительное искусство» (2 класс) анализируются этапы развития у учащихся навыков наблюдения, воображения, поиска альтернативных решений и создания творческих работ.

Ключевые слова: начальное образование, творческие способности, воображение, «Мозговой штурм», «Кластер», творческая работа, механизм.

Abstract: This article examines the scientific and methodological foundations and practical methods for developing the creative abilities of primary school students. Using the Grade 2 "Fine Arts" textbook as an example, the stages of developing students' observation, imagination, alternative solution-seeking, and creative work production skills are analyzed.

Keywords: primary education, creative abilities, imagination, "Brainstorming", "Cluster", creative work, mechanism.

Kirish. Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – o'quvchiga tayyor bilimlarni berish bilangina cheklanib qolmay, uning mustaqil fikrlash, izlanish, muammoli vaziyatlardan chiqish yo'lini topish va yangi g'oyalar yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida bolaning qiziqishi, tasavvuri, kuzatuvchanligi, fikrlashi va faolligi izchil rivojlanib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining ijodiy faoliyati faqat rasm chizish yoki ma'lum bir ijodiy topshiriqni bajarish bilangina cheklanmaydi. Bu faoliyat yangi g'oya taklif etish, bir masala yuzasidan bir necha yechim izlash, o'z fikrini bildirish, berilgan namunani o'zgartirish, mustaqil tanlay olish hamda ijodiy ishlar yaratish kabi harakatlar orqali namoyon bo'ladi.

Ijodiy qobiliyat tushunchasi: Ijodiy qobiliyat – o'quvchining yangi g'oyalar yaratishi, mustaqil yechim izlashi, muayyan masalaga nostandart yondashishi hamda o'z fikrini aniq ko'rsata olishini ta'minlaydigan qobiliyatlar majmuidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchisida ijodiy qobiliyatning rivojlanganini quyidagi belgilar orqali kuzatish mumkin:

- yangi savollar qo'yish va bir masala yuzasidan bir nechta g'oya taklif etish;
- berilgan namunani o'zgartirib ko'rish va obrazli tasavvur etish;
- mustaqil tanlov qilish va nostandart yechim taklif etish;
- o'z g'oyasini rasm, matn yoki loyiha ko'rinishida amalga oshirish hamda isbotlash.

Shu bois ijodiy qobiliyatni faqat “rasm chizish qobiliyati” deb tushunish ilmiy-metodik jihatdan cheklangan yondashuv bo'ladi. U o'quvchining tafakkuri, tasavvuri, izlanuvchanlik faoliyati, kommunikativ faolligi va shaxsiy qaror qabul qilishi bilan birga rivojlanadi.

Adabiyotlar tahlili. L.S. Vigotskiy bolalik davrida tasavvur bilan ijodiy faoliyatning o'zaro bog'liqligiga alohida e'tibor beradi [1]. Uning nazariy qarashlari bolaning avvalgi tajribasi va bilimlarini birlashtirish orqali yangi obrazlar yaratish mumkinligini tushuntirishga asos bo'ladi.

V.V. Davidovning rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasida o'quvchining faol o'quv faoliyati, tafakkur jarayonlari va bilimni mustaqil o'zlashtirishi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi [2]. Shu nuqtayi nazardan, o'quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki o'quv faoliyatining faol subyekti bo'lishi lozim.

A.V. Xutorskoyni kreativ ta'limga oid qarashlarida o'quvchining o'zining bilim va ijodiy san'atini yaratishiga e'tibor qaratiladi [3]. Bu yondashuv boshlang'ich ta'limda tayyor namunani takrorlashdan ko'ra, o'quvchining individual g'oyasini amalga oshirishga imkon beradigan topshiriqlarni qo'llashning ahamiyatini ko'rsatadi.

Metodlar. Tadqiqotda pedagogik-metodik tahlil, qiyosiy tahlil va adabiyotlarni o'rganish metodlari qo'llanildi. Tadqiqot asosi sifatida R.R. Ismoilovning umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun “Tasviriy san'at” darsligidagi [4] amaliy topshiriqlar va pedagogik interfaol metodlar tanlab olindi.

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish bosqichlari quyidagi ketma-ketlikda tashkil etildi:

Kuzatish – Tasavvur qilish – G'oya yaratish – Yechim tanlash – Ijodiy faoliyat – Refleksiya

Pedagogik interfaol metodlar. “Aqliy hujum” metodi: O‘quvchilarni ma’lum bir masala bo‘yicha ko‘p g‘oya taklif qilishga yo‘naltiradi (“Bu predmetni yana qanday tasvirlash mumkin?,” “Agar bu holat boshqacha bo‘lsa, nima bo‘lar edi?”).

“Klaster” metodi: Tushunchalarni tizimlashtiradi (Masalan: Ijod – tasavvur – g‘oya – *fantaziya* – *izlanish* – *yangilik* – *yechim* – *rasm* – *san’at*).

Muammoli topshiriq metodi. O‘quvchiga tayyor javob berilmaydi, muqobil yechim izlashga yo‘naltiriladi (Masalan: Odatdagi gultuvaklardan farq qiladigan yangi gultuvak turini o‘ylab toping).

1-jadval

Metodlarning o‘zaro bog‘liqligi va qobiliyatlarni rivojlantirish

Metod	Asosiy vazifa	Rivojlanadigan qobiliyat
"Aqliy hujum"	Ko‘p g‘oya taklif qilish	Divergent fikrlash
"Klaster"	G‘oyalarni tizimlashtirish	Assotsiativ va tizimli fikrlash
Muammoli topshiriq	Yechim izlash	Tahlil va muqobil fikrlash
Ijodiy topshiriq	Yangi mahsulot yaratish	Kreativlik
Rolli o‘yin	Obrazga kirish	Tasavvur qilish, kommunikatsiya
Loyiha metodi	G‘oyani amalga oshirish	Rejalashtirish, ijodkorlik, isbotlash

Natijalar. R.R. Ismoilovning “Tasviriy san’at” 2-sinf darsligidagi topshiriqlarni tahlil qilish natijasida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantiradigan quyidagi asosiy bloklar aniqlandi:

“Ijodiy fikrlash” topshirig‘i. O‘quvchiga oldingi darsdagi gultuvaklardan farq qiladigan yangi shakl, rang va naqshdagi gultuvak rasmini chizish topshiriladi. O‘quvchi tayyor namunani ko‘chirmaydi, balki shakl, rang va naqshni mustaqil belgilaydi.

“Naqshinkor bezaklar” topshirig‘i. O‘quvchilar Samarqanddagi tarixiy joylardagi naqsh elementlarini tahlil qiladilar. Topshiriq metodikasi: reproduktiv faoliyat (namunani o‘rganish) produktiv faoliyat (o‘z naqshini yaratish) bosqichida amalga oshiriladi.

“Archa o‘yinchoqlari” topshirig‘i. O‘yinchoqlarni kuzatish, taqqoslash, tanlash va o‘z g‘oyasi bo‘yicha yangi o‘yinchoq rasmini chizish tavsiya etiladi. Bu topshiriq estetik tanlov va individual ijodkorlikni ta’minlaydi.

“Tasavvur qilish” topshirig‘i (18-dars). O‘quvchilar tasavvur qilgan rasmini qalamlar yordamida rasm daftariga tushiradi. Bu tasavvurni aniq ijodiy ishlarga aylantirishni ko‘rsatadi.

Ijodkorlik qobiliyatni baholash mezonlari

Mezon	Yuqori daraja	O'rta daraja	Past daraja
Yangi g'oya taklif qilish	Bir nechta original g'oya taklif qiladi.	Bitta original g'oya taklif qiladi.	Tayyor namunaga tayanadi
Tasavvur qilmoq	Yangi obraz yaratadi	Taqdim etilgan obrazni o'zgartiradi.	Andozadan chiqishi qiyin
Muqobil yechim	Bir necha yechim taklif qiladi	Bitta yechim topadi	Tayyor javobni kutadi
Mustaqil faoliyat	Topshiriqni mustaqil kengaytiradi	Topshiriqni bajaradi	O'qituvchi yordamiga muhtoj
Isbotlash	O'z qarorini tushuntirib, isbotlaydi.	Qisqacha tushuntiradi	Tushuntirishda qiynaladi
Ijodiy ish	Asl nusxada va sifatli buyum yaratadi	Namuna asosida buyum yaratadi	Namunani takrorlaydi

Muhokama. Darslik materiallarining pedagogik-metodik tahlili shuni ko'rsatadiki: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishi topshiriqning ochiqqligiga, bir necha javob variantining mavjudligiga va tanlash erkinligiga bevosita bog'liq. Interfaol metodlarni alohida emas, balki ketma-ketlikda qo'llash (*Aqliy hujum – Klaster – Muammoli topshiriq – Ijodiy ish – Refleksiya*) o'quvchini g'oya yaratishdan uni amalga oshirishgacha yo'naltiradi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish - tayyor bilimni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, mustaqil fikrlash va ijodiy ishlarni yaratishni talab qiladigan mexanizmdir. O'qituvchining asosiy vazifasi nafaqat "to'g'ri javob" topishni o'rgatish, balki o'quvchiga o'z g'oyasini yaratish, o'z qarorini tanlash, uni amalga oshirish va isbotlash imkonini berishdan iborat.

Foydalangan adabiyotlar

1. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте: психологический очерк: книга для учителя. – 3-е изд. – Москва: Просвещение, 1991. – 93 с.
2. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. – Москва: ОПЦ «ИНТОР», 1996. – 541 с.

3. Хуторской А.В. Дидактическая эвристика: теория и технология креативного обучения. – Москва: Изд-во Московского университета, 2003. – 415 с.
4. Ismailova R.R. Tasviriy san'at. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. – Toshkent: «Novda Edutainment» nashriyoti, 2023. – 64 b. ISBN 978-9943-9689-3-b.

